Rahmatullayev Mirjalol Khatam ogli	
OLIY TA'LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH TIJORAT SIRINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	861
Butayev Dilshod Eshbekovich	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ОБЛАЧНЫЕ БУХГАЛТЕРСКИЕ СИСТЕМЫ: НАДЁЖНОСТЬ ОТЧЁТНОСТИ И КИБЕРБЕЗОПАСНОСТЬ.....	867
Бозорова Озода Рахимовна	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANKLARNING CHAKANA KREDITLASH AMALIYOTI TAHLILI	872
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
XALQARO STANDARTLARNI AMALGA OSHIRISH JARAYONIDA AUDITORLAR VA KORXONALAR UCHUN AMALIY TAVSIYALAR.....	877
Ibragimov Azizbek Keldibek o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	882
Akbarov Husniddinjon Mo'ysin o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH	888
Omanov Sanjar Qurbonazar o'g'li	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI SOLIQ IMTIYOZLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI.....	894
Usmonov Shavkatjon Shukurovich	
АДАПТАЦИЯ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ В НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ	901
Абилов Эльман Худаверди оглы	
QURILISH SOHASIDA KORPORATIV IJTIMOIIY MAS'ULIYAT: XALQARO TAJRIBA VA QIYOSIY TAHLIL.....	906
Murotkosimov Shoxrux Abdusalimovich	
TADBIRKORNING KREDIT, FOIZ, SOLIQ TO'LOVLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI XUSUSIDA.....	914
Hakimov Odil Arziqulovich	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDI IQTISODIYOTNING REAL SEKTORIGA KIRITILGAN INVESTITSIALARNI MOLIYALASHTIRISHNING XUSUSIYATLARI	918
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KORXONALARDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	925
Xalilova Aziza Rustamovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	930
Uzakova Umida Ruziyevna	
INVESTITSIYA JALB QILISHNING HUDUDIIY MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIIY MAZMUNI.....	936
Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
HUDUDLARNING TURISTIK SALOHIIYATINI OSHIRISHDA TURISTIK ZONALARNING AHAMIYATI	940
Umarova Mahliyo Yaxshiboy qizi	
HUDUD OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI SANOATI ISHLAB CHIQUARISH KO'RSATKICHLARI SAMARADORLIGINING EKONOMETRIK VA STATISTIK TAHLILI.....	945
Xursanov Sherzod Ulaboyevich	



HUDUD OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI SANOATI ISHLAB CHIQUARISH KO'RSATKICHLARI SAMARADORLIGINING EKONOMETRIK VA STATISTIK TAHLILI

Xursanov Sherzod Ulaboyevich

Termiz davlat universiteti

Mustaqil tadqiqotchi

ORCID: [0009-0007-2703-6192](https://orcid.org/0009-0007-2703-6192)

E-mail: xursanovsherzod2928@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Surxondaryo viloyatida oziq-ovqat va nooziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, shuningdek, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol tovarlari hajmi ko'rsatkichlarining ekonometrik va statistik tahlili amalga oshirilgan. Oziq-ovqat mahsulotlari hajmi dinamikasini o'rganishda Sturges (Sturjes) guruhlash usulidan foydalanilgan. Shuningdek, mazkur yo'nalishda tadqiqot olib borgan olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilinib, ularning natijalari umumlashtirilgan.

Kalit so'zlar: statistik tahlil, ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar, oziq-ovqat xavfsizligi, bozor, Sturges usuli, standart og'ish, nooziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jaligi, mahsulotlar, raqobat, mintaq.

Abstract. The article provides an econometric and statistical analysis of the production volumes of food and non-food industrial products in the Surkhandarya region, as well as indicators of per capita consumer goods consumption. The dynamics of food production volumes are analyzed using the Sturges grouping method. In addition, scientific studies conducted by researchers in this field are reviewed and their main findings are summarized.

Key words: statistical analysis, producers, consumers, food security, market, Sturges method, standard deviation, non-food industry, agriculture, products, competition, region.

Аннотация. В статье проведён эконометрический и статистический анализ объёмов производства продукции пищевой и непищевой промышленности в Сурхандарьинской области, а также показателей объёма потребительских товаров в расчёте на душу населения. Для анализа динамики объёмов производства пищевой продукции использован метод группировки по Стёрджессу (Sturges). Кроме того, проанализированы научные исследования учёных, работавших в данной области, и обобщены основные результаты.

Ключевые слова: статистический анализ, производители, потребители, продовольственная безопасность, рынок, метод Стёрджесса, стандартное отклонение, непищевая промышленность, сельское хозяйство, продукция, конкуренция, регион.

KIRISH

Hudud oziq-ovqat mahsulotlari sanoati bugungi kunda nafaqat aholini strategik ahamiyatga ega mahsulotlar bilan barqaror ta'minlash, balki bandlik darajasini oshirish, aholi daromadlarini ko'paytirish hamda hududning eksport salohiyatini kengaytirishda muhim o'rin tutadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, oziq-ovqat sanoati global ishlab chiqarish hajmining 10–12 foizini tashkil etadi, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa bu ko'rsatkich 15–18



foizgacha yetadi [1]. Ushbu raqamlar so'nggi yillarda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarining barqaror o'sishi bilan bir qatorda, resurslardan foydalanish samaradorligi, ishlab chiqarish tarkibi, qo'shilgan qiymat ulushi va raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari hududlar kesimida turlicha shakllanayotganini ko'rsatadi. Shu bois, ishlab chiqarish hajmini oddiy taqqoslash bilan cheklanib qolmasdan, mazkur jarayonlarni chuqur iqtisodiy, statistik va ekonometrik tahlil asosida o'rganish zarurati yuzaga kelmoqda.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda import hajmini bosqichma-bosqich qisqartirish bo'yicha belgilangan davlat dasturlari sharoitida hudud oziq-ovqat sanoati samaradorligini ilmiy asoslangan mezonlar orqali baholash alohida ahamiyat kasb etadi. FAO (Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti) ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda global oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmi 2010-yilga nisbatan 28 foizga oshgan, biroq samaradorlik ko'rsatkichlari (resurs sarfi, chiqindilar darajasi, energiya intensivligi) hududlar bo'yicha 2–3 barobar farq qilmoqda [2]. Mahalliy xomashyo bazasidan foydalanish darajasi, ishlab chiqarish quvvatlarining bandlik koeffitsienti, texnologik yangilanish sur'atlari, mehnat unumdorligi, tannarx va rentabellik ko'rsatkichlarining dinamikasi hududiy iqtisodiy siyosat natijadorligini bevosita aks ettiradi. Shu sababli, ushbu ko'rsatkichlarni ekonometrik va statistik usullar asosida tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Oziq-ovqat mahsulotlari sanoati O'zbekistonda, jumladan, Surxondaryo viloyatida so'nggi yillarda ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida jadal rivojlantirilmoqda. 2025-yilda mamlakat bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 103,7 trillion so'mni tashkil etib, tarmoqning sanoat tarkibidagi ulushi hamda hududlar bo'yicha ixtisoslashuvi izchil kuchayib borayotganini ko'rsatdi [3]. Surxondaryo viloyatida esa 2025-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy hajmi 14,9 trillion so'm atrofida shakllandi. Investitsiya dasturlari doirasida 300 million AQSh dollari miqdoridagi 184 ta loyiha ishga tushirildi va ularning muhim qismi oziq-ovqat hamda qayta ishlash sanoati hissasiga to'g'ri kelishi tarmoqning barqaror kengayib borayotganidan dalolat beradi [4].

Hududda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va narxlar barqarorligini qo'llab-quvvatlash maqsadida mahsulot zaxiralarini shakllantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Surxondaryo viloyatida 60 ta xo'jalik yurituvchi subyektga qarashli 13 ta sovtgich va 47 ta omborxonada 34,1 ming tonna asosiy turdagi oziq-ovqat hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari zaxirasi yaratilgan. Xususan, 2,3 ming tonnadan ortiq un, 403,8 tonna o'simlik yog'i, 158 tonna shakar va 28 ming tonnadan ziyod bug'doy jamg'arilgan [5]. Ushbu jarayonda "Daladan dasturxongacha" tamoyili asosida dehqon bozorlari va ko'chma yarmarkalar orqali mahsulotlarni bevosita ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetkazib berish tizimi samarali yo'lga qo'yilmoqda.

Hozirgi sharoitda tarmoq oldida turgan asosiy vazifa oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish, mahsulotlar sifatini yanada yaxshilash, yuqori eksport salohiyatiga ega hamda tejamkor zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishishdan iborat. Bu esa, o'z navbatida, oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlarini ekonometrik va statistik jihatdan tizimli tahlil qilish hamda chuqur ilmiy tadqiq etishni taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodchi olim I.Y. Umarovning ilmiy tadqiqotlarida oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlikni rivojlantirish mexanizmining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati zamonaviy yondashuvlar asosida batafsil yoritilgan. Olim tomonidan tadbirkorlik subyektlarining xo'jalik mexanizmiga berilgan ta'riflar umumlashtirilgan holda hamda oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish xususiyatlaridan kelib chiqib, quyidagi mualliflik ta'rifi taklif etilgan: «Oziq-ovqat sanoati sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmi — bu ishlab chiqarish jarayonida mavjud iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash, bozor talablariga mos mahsulotlar yaratish hamda sohaga xos bo'lgan iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishga qaratilgan tizimdir» [6].

Yuqorida qayd etilgan ilmiy izlanishlardan tashqari, respublika olimlari tomonidan oziq-ovqat sanoatining rivojlanish yo'nalishlarini ekonometrik modellar asosida o'rganishga qaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar ham amalga oshirilgan. Jumladan, dotsent H.N. Sabirov tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, oziq-ovqat sanoati aholining asosiy ehtiyojlarini qondiruvchi muhim tarmoq hisoblanadi [7]. Ushbu vazifani samarali hal etishda mavjud resurslardan oqilona foydalanish, oziq-ovqat sanoati korxonalarini takomillashtirish, ularni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, shuningdek, chet el investitsiyalarini jalb etish jarayonlarini yanada faollashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda Surxondaryo viloyatida oziq-ovqat sanoati hamda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish samaradorligini baholash uchun statistik va ekonometrik tahlil usullaridan kompleks foydalanildi. Axborot



bazasini O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Surxondaryo viloyati hokimligi hamda FAO va UNIDOning ochiq rasmiy ma'lumotlari tashkil etadi. Tahlil 2010–2025-yillarni qamrab olib, viloyatning 1 ta shahar va 14 ta tuman kesimida amalga oshirildi.

Tahlilda aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat va iste'mol tovarlari hajmi, ularning o'sish sur'atlari hamda tumanlar kesimidagi ishlab chiqarish ko'rsatkichlari asosiy o'zgaruvchilar sifatida tanlandi. Hududlarni samaradorlik darajasiga ko'ra guruhlash uchun statistik guruhlash usuli qo'llanilib, guruhlar soni Sturges formulasi asosida ($N = 15$) aniqlandi va hududlar 5 ta guruhga ajratildi. Variatsiya diapazoni asosida oraliq intervallar belgilandi hamda hududlar tegishli guruhlarga joylashtirildi.

Statistik tavsiflashda markaziy tendensiya ko'rsatkichlari (o'rtacha qiymat, mediana, moda) va tarqoqlik o'lchovlari (standart og'ish, variatsiya diapazoni, o'rtacha chiziqli og'ish, kvartillar farqlanish koeffitsienti) hisoblandi. Olingan natijalar jadval va guruhlashlar orqali taqdim etilib, hududlar kesimida ishlab chiqarish samaradorligining qiyosiy tahlili hamda hududiy konsentratsiya va differensiallashuv jarayonlari baholandi. Shu asosda hududiy nomutanosibliklarni aniqlash va amaliy takliflar ishlab chiqish uchun ilmiy-uslubiy asos yaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hudud oziq-ovqat mahsulotlari sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini aniqlashda keng qo'llaniladigan usullardan biri hududlarni statistik guruhlarga ajratish orqali baholash hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda ishlab chiqarish samaradorligi darajasiga ko'ra hududlar guruhlarga ajratildi. Oziq-ovqat mahsulotlari sanoati rivojlangan hududlarning ustun jihatlarni aniqlash asosida boshqa tumanlarni rivojlantirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish ko'zda tutiladi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari sanoati nisbatan rivojlangan hududlarda ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlanib, ularni boshqa mintaqalarda qo'llash imkoniyatlari baholanadi. Ushbu tadqiqotni amalga oshirish jarayonida birinchi bosqichda mintaqalar hududlarini guruhlarga ajratish oraliqlarini aniqlash uchun Sturges (Sterjes) formulasi qo'llanildi [7].

$$n = 1 + 3,322 \cdot \lg N \quad (1)$$

Bunda:

n – mintaqaga tegishli ko'rsatkichlarni oraliq intervallarga ajratish bo'yicha guruhlar soni;

N – kuzatishlar soni.

Surxondaryo viloyati uchun ushbu ko'rsatkich 15 ga teng bo'lib, bu 1 ta shahar va 14 ta tuman mavjudligini anglatadi. Mintaqaga tegishli guruhlar soni (2.2.1)-formula asosida aniqlanadi.

$$n = 1 + 3,332 \cdot \lg 15 = 1 + 3,332 \cdot 1,1760914 = 4,907 \approx 5 \quad (2)$$

Mintaqada oziq-ovqat mahsulotlari sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar 5 ta guruhga ajratildi. Guruhlash jarayonida oraliq intervallar har bir ko'rsatkichning qiymatlari asosida hisoblab chiqildi. Oraliq intervallarni aniqlashda quyidagi formuladan foydalanildi:

$$i = \frac{X_{\max} - X_{\min}}{n} \quad (3)$$

Yuqorida keltirilgan (3)-formula asosida Surxondaryo viloyati hududlarida aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi, aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan iste'mol tovarlarining o'sish sur'atlari, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol tovarlari hajmi, tumanlar kesimida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi hamda tumanlar kesimida iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari tahlil qilindi. Ushbu ko'rsatkichlar asosida mintaqada oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligiga hududlarning ta'siri baholandi.

2010–2025-yillar oralig'ida mintaqada aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi hududlar kesimida 5 ta guruhga ajratildi.

$$i = \frac{3447,2 - 421,9}{5} = 605,1 \quad (4)$$

Hisob-kitoblar amalga oshirilib, guruhlar o'rtasidagi oraliq interval qiymati

$i = 605,1$ ga teng ekanligi aniqlandi. Hududlarda aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi ekonometrik va statistik usullar asosida tahlil qilinganda, ayrim hududlar o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjudligi kuzatildi, bu esa mazkur yo'nalishda samaradorlikni oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar zarurligini ko'rsatadi (1-jadval).



1-jadval. Surxondaryo viloyatida aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmiga ko'ra shahar va tumanlarning statistik hamda ekonometrik guruhlanishi

Hududlarda aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mollari miqdori statistik tavsifi		Hududlarda aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mollari miqdoriga ko'ra sifat mezonlari	Hududlarda aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mollari miqdori oraliq ko'rsatkichlari		Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mollari miqdori ko'rsatkichlari oraliqlari bo'yicha hududlar soni va ulushi		Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mollari miqdori bo'yicha hududlar soni
			≥	<	soni	ulushi	
Moda	892,4	A'lo	3 447,2	2 842,1	1	6,667	Termiz sh,
Mediana	1290,6	Yaxshi	2 842,1	2 237,1	1	6,667	Jarqo'rg'on
Standart og'ish	776,57						
Variatsiya diapazoni	3025,3	O'rta	2 237,1	1 632,0	0	0	-
O'rtacha chiziqli og'ish	553,52						
Kvartili farqlanish keffitiyenti	892,4						
Ko'rsatkich minimumi	421,9	Qoniqarli	1 632,0	1 027,0	6	40	Bandixon, Qumqurg'on, Saraosiy, Uzun, Sho'rchi, Termiz
Ko'rsatkichlar maksimumi	3 447,2	Qoniqarsiz	1 027,0	421,9	7	46,667	Muzrabot, , Oltinsoy, Angor, Boysun, Qiziriq, Sherobod, Denov,
Kuzatishlar soni	15	Umumiy taqsimot qiymatlari				15	100

Ya'ni, mintaq hududlarining 86,7 foizi mazkur ko'rsatkich bo'yicha "qoniqarli" va "qoniqarsiz" guruhlariga to'g'ri kelishi aniqlanadi. Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi bo'yicha hududlararo tafovutlarning yuqori darajada ekanligi empirik ma'lumotlar asosida tasdiqlanadi. Markaziy tendensiya ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatadiki, moda (892,4) va mediananing (1 290,6) nisbatan past qiymatlari, variatsiya diapazoni (3 025,3) hamda standart og'ishning yuqori darajasi (776,57) hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bir tekis taqsimlanmaganini va taqsimotning sezilarli darajada assimetrik ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi. Kvartillar farqlanish koeffitsientining (892,4) yuqori bo'lishi esa tanlanma ichida yuqori va past ko'rsatkichli hududlar o'rtasidagi tafovutlarning iqtisodiy jihatdan ahamiyatli ekanini ko'rsatadi.

Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari bo'yicha hududlar statistikasi va sifat mezonlari asosida amalga oshirilgan guruhlash natijalari shuni ko'rsatadiki, yuqori kategoriyalarda ("a'lo" va "yaxshi") atigi ikki hudud mavjud bo'lib, ularning umumiy hududlar sonidagi ulushi 13,3 foizdan oshmaydi. "O'rta" guruhga birorta hududning kirmagani esa taqsimotda strukturaviy uzilish mavjudligini, ya'ni rivojlanish darajasi bo'yicha ma'lum bir "bo'sh qatlam" shakllanganini anglatadi. Bu holat sanoat ishlab chiqarishining polarizatsiyalashgan modelini, ya'ni juda yuqori va nisbatan past ko'rsatkichlarga ega hududlar guruhlari shakllanganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, "qoniqarli" va "qoniqarsiz" guruhlariga mos ravishda 40,0 va 46,7 foiz hududlarning to'g'ri kelishi hududiy sanoat tizimi asosan past va o'rtadan past darajadagi ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga ega hududlardan iborat ekanini anglatadi.

Quyida guruhlariga kiruvchi hududlarda — Bandixon, Qumqurg'on, Sariosiy, Uzun, Sho'rchi, Termiz tumani, Muzrabot, Oltinsoy, Angor, Boysun, Qiziriq, Sherobod va Denov tumanlarida — aholi jon boshiga sanoat mahsuloti hajmi 421,9–1 027,0 oraliq'ida shakllangan. Ushbu ko'rsatkich maksimal qiymat (3 447,2 — Termiz shahri) bilan taqqoslanganda, hududlar o'rtasida uch martadan ortiq tafovut mavjudligi aniqlanadi. Bunday farqlar investitsiya va ishlab chiqarish infratuzilmasining hududlar bo'yicha notekis taqsimlanganini, sanoat salohiyatining shakllanishida Termiz shahri hamda ayrim nisbatan rivojlangan hududlar (jumladan, Jarqo'rg'on — "yaxshi" guruh) foydasiga kuchli konsentratsiya jarayoni kechayotganini ko'rsatadi.

Ilmiy jihatdan, ushbu holat sanoat siyosati samaradorligini hududiy kesimda qayta baholash, "qoniqarsiz" va "qoniqarli" guruhlariga kiruvchi hududlar uchun maqsadli qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligini asoslaydi. Xususan, klasterlash yondashuvi, infratuzilma investitsiyalari, soliq-imtiyoz choralari hamda texnologik modernizatsiya dasturlarini differensial qo'llash orqali hududiy tafovutlarni bosqichma-bosqich



qisqartirish imkoniyati mavjud. Shu tariqa, keltirilgan statistik ko'rsatkichlar hududiy sanoatni, xususan, oziq-ovqat sanoatini hududlar miqyosida muvozanatli rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish uchun muhim empirik asos bo'lib xizmat qiladi (2-jadval).

2-jadval. Surxondaryo viloyatida aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan iste'mol tovarlari miqdoriga ko'ra shahar va tumanlarning statistik hamda ekonometrik guruhlanishi

Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan iste'mol mollari statistik tavsifi		Hududlarda aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan iste'mol mollari miqdoriga ko'ra sifat mezonlari	Hududlarda aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan iste'mol mollari oraliq ko'rsatkichlari (ming so'mda)		Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan iste'mol mollari ko'rsatkichi oraliqlari bo'yicha hududlar soni va ulushi		Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan iste'mol mollari darajasi bo'yicha hududlar soni
			≥	<	soni	ulushi	
Moda		A'lo	1126,9	926,8	1	6,667	Termiz sh,
Mediana	364,3	Yaxshi	926,8	726,7	1	6,667	Sho'rchi,
Standart og'ish	256,7	O'rta	726,7	526,6	3	20	Termiz, Denov, Jarqo'rg'on
Variatsiya diapazoni	1000,5						
O'rtacha chiziqli og'ish	204,2						
Kvartili farqlanish keffitiyenti	319,7						
Ko'rsatkich minimumi	126,4	Qoniqarli	526,6	326,5	5	33,33	Oltinsoy, Angor, Boysun, Qiziriq, Sherabod
Ko'rsatkichlar maksimumi	1126,9	Qoniqarsiz	326,5	126,4	5	33,33	Qumqurg'on, Bandixon, Saraosiyo, Muzrabot, Uzun
Kuzatishlar soni	15	Umumiy taqsimot qiymatlari			15	100	

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, viloyatda aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan iste'mol tovarlari hajmining hududlar bo'yicha taqsimlanish holati tavsiflanadi. Mediananing 364,3 ming so'm darajasida shakllanishi tanlanma bo'yicha "tipik" hududlarda iste'mol sanoati ishlab chiqarishi nisbatan past qiymatlar zonasida jamlanganini ko'rsatadi. Eng yuqori va eng past ko'rsatkichlar orasidagi variatsiya diapazonining 1 000,5 ming so'm, standart og'ishning esa 256,7 ming so'm darajasida bo'lishi hududlararo dispersiyaning yuqori ekanini, ya'ni aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmi bo'yicha sezilarli hududiy differensiallashuv mavjudligini anglatadi. Kvartillar farqlanish koeffitsientining 319,7 ga teng bo'lishi taqsimotning o'rta qismida ham yuqori variativlik saqlanib qolayotganini ko'rsatib, hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha ichki tabaqalanish chuqurligini tasdiqlaydi.

Iste'mol tovarlari hajmiga ko'ra sifat mezonlari asosida amalga oshirilgan guruhlash natijalariga ko'ra, "a'lo" va "yaxshi" toifalariga kiruvchi hududlar soni atigi 2 ta bo'lib, ular Termiz shahri va Sho'rchi tumanidan iborat. Ularning umumiy hududlar sonidagi ulushi 13,3 foizni tashkil etadi. Bu holat yuqori ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bo'yicha konsentratsiya darajasi nisbatan yuqori ekanini, ya'ni iqtisodiy faollik bir necha markazlarda jamlanayotganini ko'rsatadi. "O'rta" guruhga 526,6–726,7 ming so'm oralig'ida joylashgan 3 ta hudud kirib, ularning ulushi 20,0 foizni tashkil etadi, bu esa iste'mol sanoati bo'yicha o'rtacha rivojlangan hududlar qatlamining nisbatan tor ekanini anglatadi. Aksincha, "qoniqarli" va "qoniqarsiz" toifalarga mos ravishda 5 tadan hudud to'g'ri kelib, har birining ulushi 33,3 foizni tashkil etadi. Bu esa tanlanmaning asosiy qismi aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmi bo'yicha past va o'rtadan past darajadagi zonalarda jamlanganini, ya'ni hududiy sanoat rivojlanishi darajasi bo'yicha asimmetrik tuzilma shakllanganini ko'rsatadi.

Ko'rsatkich minimumi 126,4 ming so'm va maksimumi 1 126,9 ming so'm o'rtasidagi nisbat qariyb 1:9 ga teng bo'lib, bu hududlar o'rtasida aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan iste'mol tovarlari hajmi bo'yicha sezilarli nisbiy tafovut mavjudligini, resurslar, ishlab chiqarish quvvatlari va kapital qo'yilmalarining hududlar bo'yicha notekis taqsimlanganini ko'rsatadi. Bunday taqsimot iqtisodiy-statistik nuqtai nazardan polarizatsiyalashgan hududiy rivojlanish modeli sifatida talqin etilishi mumkin: yuqori ko'rsatkichli "o'sish qutbi" sifatida Termiz shahri va ayrim tumanlar ajralib turgan bo'lsa, iste'mol sanoati ishlab chiqarishi yetarli darajada rivojlanmagan, sanoat salohiyati nisbatan past bo'lgan hududlar guruhi sifatida Qumqo'rg'on, Bandixon, Sariosiyo, Muzrabot, Uzun va boshqa tumanlar ajralib turadi.



Shu bois, olingan statistik natijalar hududiy iqtisodiy siyosatda differensiallashgan yondashuv zarurligini ilmiy asoslaydi. Xususan, “qoniqarsiz” va “qoniqarli” guruhlariga kiruvchi tumanlar uchun iste’mol sanoatini rivojlantirishga qaratilgan maqsadli investitsiya dasturlarini kengaytirish, sanoat zonalari va logistika infratuzilmasini shakllantirish, shuningdek, soliq va kredit imtiyozlari orqali sanoatlashtirish jarayonini rag’batlantirish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Surxondaryo viloyatida oziq-ovqat sanoati tarmog’ini rivojlantirish dasturini ishlab chiqishda hududlar bo’yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish darajasini inobatga olgan holda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini kengaytirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan chora-tadbirlarni tizimli qo’llash maqsadga muvofiqdir. Jumladan, birinchi yo’nalishda jalb etilayotgan investitsiyalarni oziq-ovqat sanoati infratuzilmasini rivojlantirishga yo’naltirish, shuningdek, sanoat va iste’mol tovarlari ishlab chiqarish bo’yicha soliq hamda kredit imtiyozlarini, avvalo, past ko’rsatkichli hududlarda qo’llash, investitsiyalarni hududiy kvotalash mexanizmlari orqali kapital oqimini muvozanatlashtirish tavsiya etiladi.

Ikkinchi yo’nalishda esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun iste’mol tovarlari ishlab chiqarish sohasida subsidiyalar, kafolatli kreditlar va grantlar ajratishni kengaytirish orqali hududiy ishlab chiqarish bazasini mustahkamlash hamda yangi quvvatlarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Ushbu chora-tadbirlar hududlar o’rtasidagi sanoat rivojlanishi tafovutlarini bosqichma-bosqich qisqartirish, oziq-ovqat sanoatining barqaror o’sishini ta’minlash va mintaqaning umumiy iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. UNIDO. (2025). World Manufacturing Production Statistics. United Nations Industrial Development Organization. <https://www.unido.org/>
2. FAO. (2025). The State of Food and Agriculture 2025. Food and Agriculture Organization of the United Nations. <https://www.fao.org/>
3. O’zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2024). Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi. <https://stat.uz/uz/>
4. Surxondaryo viloyati hokimligi. (2025). Yil sarhisobi: sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish. <https://gov.uz/oz/surxondaryo/>
5. O’zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2025). Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi. <https://stat.uz/uz/>
6. Umarov, I. Yu. O’zbekiston Respublikasi oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish: i.f.d. diss. 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti; 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti. – Toshkent, 2020. – 211 b.
7. Sabirov, H. N. Oziq-ovqat sanoatining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellashtrish: i.f.f.d. avtoref. (PhD). 08.00.06 – Ekonometrika va statistika. – Toshkent, 2021. – 54 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>